

## MAXTUMQULI IJODIDA AVTOBIOGRAFIK MOTIVLAR

Hamdamov Ulug'bek Hasan o'g'li

TerDU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi.

O'zbekiston, Surxondaryo viloyati

+998990570950. [hamdamov\\_u95@mail.ru](mailto:hamdamov_u95@mail.ru)<https://doi.org/10.5281/zenodo.11183925>

**Annotatsiya.** Maqolada turkman adabiyoti asoschisi Maxtumquli hayot yo'liga, ijod mahsuliga nazar tashlandi, lirik merosi tahlil qilindi. Ijodiga xos ayrichalik, shoirning poetik mahorati, misralari qatiga jo bo'lgan teran falsafiy qarashlari tadqiq etildi. Firog'iy poeziyasi bilan uning tarjimayi holi, a'moli-yu maslagi o'rtasidagi aloqadorlik yuzasidan mulohazalar yuritildi.

**Kalit so'zlar:** poeziya, poetik mahorat, avtobiografiya, adabiy aloqa, hasbi hol, turkman adabiyoti, lirik kechinma, tasavvuf, motiv.

## AUTOBIOGRAPHICAL MOTIVES IN MAKHTUMQULI'S CREATION

**Abstract.** In the article, the founder of Turkmen literature, Makhtumquli, looked at his life path, creative output, and analyzed his lyrical heritage. The peculiarity of his work, the poet's poetic skills, and his deep philosophical views, which are embedded in his verses, were studied. Reflections were made on the connection between Firoghi's poetry and his biography, actions and advice.

**Keywords:** poetry, poetic skill, autobiography, literary communication, hasbi case, Turkmen literature, lyrical experience, mysticism, motive.

## АВТОБИОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ МАХТУМКУЛИ

**Аннотация.** В статье основоположник туркменской литературы Махтумкули рассмотрел свой жизненный путь, творческую деятельность, проанализировал свое лирическое наследие. Изучены своеобразие его творчества, поэтическое мастерство поэта, его глубокие философские взгляды, заложенные в его стихах. Были размышления о связи поэзии Фирогии с его биографией, действиями и советами.

**Ключевые слова:** поэзия, поэтическое мастерство, автобиография, литературное общение, случай хасби, туркменская литература, лирический опыт, мистика, мотив.

Mashhur turkman shoiri va mutafakkiri, turkman adabiyoti, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mahoratli ijodkor. Shoir turkmanlar orasida mashhur donishmand adib sifatida qanchalar nom qozongan bo'lsa, shu qadar o'zbeklarning ham eng sevimli shoiri sifatida e'tiborli. Hamidulla

Hasanov yozadi: “Maxtumquli Firog‘iy nihoyatda zo‘r, ta’sirli, xalqqa yoqadigan, turkmanga ham, o‘zbekka ham o‘z tilidek tushuniladigan she‘rlari bilan butun Sharqqa mashhurdir. Uning asarlarini Suriyada ham, Iroqda ham, Turkiya va Eronda ham, Afg‘oniston va hatto uzoq Arabistonda ham turkmanlar faxr bilan kuylaydilar. Afg‘onistonda bir keksa turkman baxshisi borligini eshitdim, u Maxtumquli she‘rlarini mahorat bilan ijro etishda nom chiqargani uchun o‘zini “Maxtumchi” der ekan” [9. B.203-204].

Ijodkorning turkman shoirlari otasi sifatida ulug‘lanishi bejiz emas. Maxtumquli asarlarining mavzulari, janriy xususiyatlari, shakliy o‘ziga xosligi, she‘rlari tilining nihoyatda xalqchilligi bilan ko‘p asrlik turkman adabiyotini yangi bir bosqichga ko‘tardi. Shoir asarlarining etakchi g‘oyasi – bu turkman erlari ustiga yopirilib turadigan chet el bosqinlariga barham berish, tarqoq yashayotgan, o‘zaro nifoq va ziddiyatlardan zada bo‘lgan qabila hamda urug‘larni birlashtirish, osoyishtalik va ittifoqlikka asoslangan qudratli bir davlatni barpo etishdek milliy vatanparvarlik his-tuyg‘usidan iborat. Maxtumquli she‘riyatida davr va insonlardagi nuqsonlar ustidan tanqid, bu qusur hamda kamchiliklarni to‘g‘irlash bo‘yicha tanbeh, ushbu qusurlar ustidan bildirilgan tanqiddan xulosa chiqarmagan, aytilgan tanbehlarni qulog‘iga ilmaganlar ustidan hajv qilinadi.

Maxtumquli qaysi uslubda, qaysi mavzuda yoki yo‘sinda yozmasin, ijod mahsulida baribir o‘zining hayoti, faoliyatiga oid chizgilarni uchratamiz. Bu tabiiy, albatta. Chunki har bir ijodkor istasa-istamasa, ijod mahsulida o‘zining “men”i aks etadi. Bu, ayniqsa, lirikaga juda xos.

Maxtumquli dastlabki ta’limni otasi Ozodiy kabi dastlab qishloq, so‘ng ovul maktabida olgach, Xivadagi eng nufuzli o‘quv dargohi sanalmish “Sherg‘ozixon” madrasasida ta’limni davom ettiradi, muhim ilmlarni o‘zlashtirib, Qur’oni karimni xatm qiladi, o‘zi aytganidek, “*dili ochiladi, oq-qorani, haq-nohaqni, do‘st-dushmani ajratadigan*” bo‘ladi [3. B.3]. Madrasada Qur’oni karimni yod olib, uning ma’nolaridan ko‘p ta’sirlangan, islomiy qissalar mazmuni, din-u diyonat, imon-e’tiqodning butunligi haqidagi g‘oyalarni she‘rlari zamiriga singdirib yuboradi:

*Haqdan bizga buyruq – farz erur bilim,  
Senda ta’lim oldim, ochildi dilim,  
Kelsin deya kutar ul Karkaz elim,  
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”.*

*Ajratarman endi oqu qaroni,  
Do‘st-raqib, qardoshim, Haqni, yoronni,  
O‘qidim, ko‘tardim Kitob – Qur’onni,  
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”. [1. B.80]*

Shoirning “Sherg‘ozixon” madrasasi bilan xayrlashuv munosabati bilan bitilgan mazkur she’rida ijodkorning shukrona tuyg‘ulari ifodasini ko‘rishimiz mumkin. “Go‘zal Sherg‘ozi” she’ridan ma’lum bo‘lishicha, u Xivada o‘qib yurganida ota-onasidan judo bo‘ladi:

*Komil bo‘lib, saranjomlik qilibman,  
Mashaqqat-la ul padardan qolibman,  
Ka‘bamdan ayrilib, judo bo‘libman,  
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal Sherg‘ozi! [4. B.207]*

Shoir madrasa ta’limidan qaytgach, Eron, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Hindiston kabi yurtlarni kezdi, borgan manzilidagi mashhur shaharlarda bo‘lib, ilm va ijod ahli bilan hamsuhbat bo‘ladi. She’rlaridan ma’lum bo‘lishicha, Maxtumqulining yoshligidan sayohat qilishga rag‘bati baland bo‘lgan. Safarga oq fotiha so‘rab, otasi bilan savol-javob yo‘sinida yozgan “Ota-o‘g‘il dardlashuvi” she’rida ham shoirning sayohatga, dunyoni ko‘rishga havasi kuchliligini ko‘rishimiz mumkin. She’rdagi “Ko‘nglim istar, safar qilsak...”, “Sayron etsak necha tengu tush bilan, Magar shunda g‘amgin ko‘nglim xush bo‘lar”[4. B.79-73] kabi satrlar fikrimiz tasdig‘i o‘laroq jaranglaydi. Firog‘iy safari davomida musofirchilikning jabrini, g‘ariblikning g‘urbatini ham chekti. Har ne bo‘lsa, o‘z maskanidan ajramaslikka, Vatanini sevishlikka chorlaydi:

*Har yigitkim ayro tushsa Vatandin,  
Xabar istar har bir yo‘ldan o‘tgandan. [1. B.31]*

*Mastona yurguncha g‘ayr yurtinda,  
Unib-o‘sgan o‘z yurtingdan ayrilma.  
Mag‘rur kaklik kabi nafsing yo‘lida,  
Doma tushib qanotingdan ayrilma. [2. B.171]*

Mirzo Kenjabekning taxmin qilishicha, “Bodi saboni ko‘rsam” sarlavhali she’rida “Zangi Boboni ko‘rsam”, deyishiga qaraganda, Toshkentga ham kelgan bo‘lishi, ehtimol:

*Na‘layni Arshga tojdir,  
Nomi olamga foshdir,  
Ikki jahon muhtojdir –  
Arab zabonni ko‘rsam, -[7. B.5].*

deyishiga ko‘ra, Payg‘ambarimiz(s.a.v.)ning muborak ravzalarini ziyorat qilmoq niyati borligini, yana: “Iymonim yo‘ldosh bo‘lsa, Borsam, Ka‘bani ko‘rsam” yoki: “Niyatim Ka‘badir, xayolim hajdir, Ixlosim bor haj tavofin etmoqqa” satrlari orqali muborak haj ibodatini ado etmoqni niyat qilganligi anglashiladi.

Maxtumquli shariat ilmi bilan birgalikda tasavvuf va tariqat ahkomlaridan ham yaxshi boxabar bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, o'zi ma'lum bir tariqat yo'liga kirib, qaysidir shayxga qo'l bermagan bo'lsa-da, Yassaviylik va Naqshbandiya sulukiga rag'batli bor bo'lgan. U o'z she'rlarida o'zini Alloh yo'liga solgan solih insonlarga ergashishga chaqiradi.

*Bir kecha yotardim, Shohi Naqshband*

*Karami jo'sh urib, bir non ketirdi; [3. B.146]*

yoki,

*Turkiston egasi – sarvar,*

*Imom Qosim, Imom Ja'far,*

*Yahyo bilan Nuh Payg'ambar,*

*Boyazid Sulton ichinda... [1. B.384]*

satrlarida yuqoridagi fikrlarimiz tasdig'ini ko'rishimiz mumkin. Ayrim manbalarda tariqat ahkomlarida otasiga ergashganligi ta'kidlanadi. Bu esa shoir otasining ham diniy bilimi, tasavvufiy holi mavjudligidan dalolat beradi:

*Molu davlatlarga ko'ngil qo'ymadi,*

*Bul jahonning ishratini suymadi.*

*Eski sholdan ortiq libos kiymadi,*

*Oxirat uyi bo'ldi qasdi otamning. [1. B.13]*

“Otamning” she'ridan keltirilgan mazkur misralar otasi Ozodiyning shariatni mahkam tutgan, iymoni mustahkam musulmonlardan ekanligini dalillaydi.

Sho'ro davridayoq ba'zi tadqiqotchilar Maxtumqulining tasavvufga munosabati yuzasidan ayrim mulohazalarini bildirgan. Jumladan, G.Karpov hayotining muayyan davrlarida Maxtumqulining tasavvuf tariqatlari bilan aloqasi bo'lgani, binobarin, ijodida so'fiyona ohanglar mavjudligini ta'kidlaydi. P.Skosirev Maxtumqulining falsafiy she'rlarida shoir yaqin aloqada bo'lgan tasavvuf ilmining ta'siri shundoqqina sezilib turishiga e'tibor qaratadi. A.Mulkamanov esa Maxtumqulining tasavvufdan nihoyatda ta'sirlanganini, she'rlarida “fano tuprog'i”, “ahli hol”, “faqr mulki”, “yor”, “sohibjamol”, “do'st”, “zulf” kabi so'fiyona istiloh-tushunchalar ko'p uchrashi, “Satashdim”, “Ko'rdingmi?”, “Yor sendan”, “Namasan?”, “Ey do'st”, “Oshiq bo'lmisham” she'rlarida so'fiyona ruh ustunligini qayd etgan [8. B.41].

Maxtumquli hayotiga nazar soladigan bo'lsak, shoir yoshligidanoq hayotning og'ir zarbalarini ko'gan, boshidan kechirgan. Adabiyotshunos olim A.Hamdovning yozishicha, u yoshligida xolasining qizi Mengli bilan bolalikdan birga o'ynab o'sgan, ikki yosh bir-biriga ko'ngil qo'ygan edi. Lekin otasi va akasining bevaqt o'limi oilani ham moddiy, ham ma'nan qiyin ahvolga solib qo'yadi. Maxtumqulining qalin pulini to'lashga qurbi etmasligini bilgan Menglining

akalari singillarining roziligini ham so‘ramay, uni birovga uzatib yuboradilar. Buning ustiga, davom etib kelayotgan qadimiy urf-odatga ko‘ra, Maxtumqulini katta akasining beva qolgan xotini Oqqizga nikohlab qo‘yadilar. U Oqqizdan ikki o‘g‘il ko‘radi. Kattasi Sariboy etti yoshida, ikkinchisi Ibrohim esa o‘n ikki yoshida nobud bo‘ladi [5. B.74]. Avval sevgilisidan, keyin farzandlaridan ayrilgan, oilaviy hayotda baxtini topolmagan Maxtumquli chuqur qayg‘u-hasrat ichida qoladi, butun umrini badiiy ijodga bag‘ishlaydi. Shoirning o‘ziga Firog‘iy taxallusini tanlashi ayni shu judoliklar bilan bog‘liq [6. B.140].

Turkman mumtoz adabiyotining asoschisi, shubhasiz, Maxtumqulidir. Turkman xalqi tarixining eng notinch va og‘ir davrida yashab o‘tganiga qaramay Maxtumquli serqirra ijod qildi.

Uning asarlari ko‘plab chashmalardan suv ichgan. Qur‘oni karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so‘z san‘ati va xalq og‘zaki ijodi shular sirasidan. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, so‘fiyona ruhni ham, xalqona ohanglarni ham, mumtoz adabiyot ta‘sirini ham ko‘ramiz.

Ana shu jihatlar shoir asarlarining umrboqiyiligini ta‘minlagan. “Maxtumqulining ijodi cheksiz ummonga o‘xshaydi, – dedi atoqli adabiyotshunos olim Bahodir Karimov. – Bu ummonga sho‘ng‘igan inson, albatta, dur-javohirlardan bahramand bo‘ladi”.

Xulosa shuki, Maxtumquli nafaqat turkman shoiri, balki umuminsoniyatni ezgu yo‘lga chorlovchi ulug‘ mutafakkirdir. Ba‘zan u o‘z kitobxonlariga pand-nasihat qilsa, ba‘zan beziyon erkalab qo‘yadi. Mana bu satrlarida shu ruhni sezish mumkin:

*Kel, ey do‘stim, chekma qayg‘u-g‘amni sen,  
Oqtirmagil ko‘zlarindan namni sen,  
Bu dunyoda g‘animat bil damni sen,  
Qayg‘u cheksa, yigit kishi chol bo‘lar.* [1. B.31]

## REFERENCES

1. Maxtumquli. Saylanma. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2008.
2. Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradir... T.: “Sharq” NMAK, 2007.
3. Maxtumquli. Saylanma. [Mirzo Kenjabek tarjimasi]. T.: 2007.
4. Магтымгулы. Сайланан шыгырлар. – Ашгабат – Баку, 1960.
5. Гаррыев Б.А. Магтымгулы. – Ашгабат, 1975.
6. Гурбанов Т. Беркарар дөвлет ислэрин.//Махтумкули. – Ашгабат, 1989.
7. Кенжабек М. Махтумкули – валий шоир (Таржимон мукаддимаси)//Махтумкули. Сайланма. T.: 2004.

8. Mulkamanov A. Магтымгула нэхили дүшүнмели? Махтумкули. – Ашгабат
9. Hasanov H. O'рта Osiyolik geograf va sayyohlar.